

Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020 - yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar soni - **19 649 birlikda**

Ularning umumiy
sonidagi ulushi -
64,2 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish sur'atlari -
92,0 %



2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 64,2 %, sanoat - 20,8 %, qurilish - 8,7 % ga yetdi va atigi 6,3 % ni qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (41,2 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga yetdi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,5 % ni tashkil etdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,9 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 21,4 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 42,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 8,0 %, tashish va saqlash - 5,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,8 % axborot va aloqa - 2,4 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 37,0 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisyasi 75,6 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 24,4 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 311,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 806,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,1 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati,
o'tgan yilning
mos davriga
nisbatan % da
7,1 %

**Hajmi 806,2
mlrd. so'mga
oshdi**

Xizmatlar hajmi
5 311,7
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yil yanvar-iyun oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	5 311,7	107,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	266,2	112,6
Moliyaviy xizmatlar	1 167,5	147,0
Transport xizmatlari	1 073,4	98,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 048,4	98,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	77,3	81,6
Savdo xizmatlari	1 687,1	101,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	133,6	86,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	222,4	114,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	82,0	73,0
Ijara xizmatlari	104,0	93,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	102,0	87,7
Shaxsiy xizmatlar	225,6	91,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	43,8	83,9
Boshqa xizmatlar	126,8	96,8

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 31,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (22,0 %), transport xizmatlari (20,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,0 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,8 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash, yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulushlar qayd etildi - 1,5 %, shuningdek, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (47,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (14,3 %), hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (12,6 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (27,0 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,4 % ga), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (16,1 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan bozor xizmatlari (13,3 % ga), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (12,3 % ga), shaxsiy xizmatlar (8,8 % ga), ijara xizmatlari (6,9 % ga), shuningdek, transport xizmatlarida (2,0 % ga) pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar


Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,8 % ni tashkil etib, bu 1687,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismiga, aniqrog'i 84,0 % ga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 9,7 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



2020-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 167,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 394,6 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 47,0 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyun oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 87,2 % ni tashkil etadi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 9,8 % ni tashkil etadi.



Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,0 % oralig'ida qayd etildi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan


2020-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 266,2 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 12,6 % ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 98,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida noshirlik xizmatlari - 0,9 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,2 %, va axborot sohasidagi xizmatlar - 0,2 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



2020-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 222,4 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,3 % ni tashkil etdi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

3,7 %

2019-yil
yanvar-iyun

165,3
mlrd. so'm



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

4,2 %

2020-yil
yanvar-iyun

222,4 mlrd.
so'm


2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan,
hajmning o'sishi - 57,1 mlrd. so'mga

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-iyun oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,6 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 77,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,5 % bilan ustunlik qiladi.


2020-yil yanvar-iyun oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-iyun oylarida)

2020-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 82,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 73,0 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1691,3 ming so'mga yetdi.	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 1691,3 ming so'm 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan  o'sish 227,8 ming so'mga 2019-yil yanvar-iyun - 1463,5 ming so'm
O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,9 % ni tashkil etdi.	

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2020-yil yanvar-iyun oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Andijon viloyati *	5 311,7	107,1	1691,3
Shaharlar:			
Andijon	2 762,0	112,3	6223,4
Xonobod	81,9	100,5	1923,7
Tumanlar:			
Oltinko'l	166,8	102,0	940,3
Andijon	256,3	102,3	974,6
Baliqchi	244,6	100,9	1222,2
Bo'ston	57,4	100,1	796,6
Buloqboshi	124,2	100,7	871,9
Jalaquduq	162,3	101,4	875,3
Izboskan	201,5	102,1	849,0
Ulug'nor	45,0	100,5	754,8
Qo'rg'ontepa	192,4	101,0	892,6
Asaka	286,6	102,6	875,9
Marhamat	159,2	102,1	921,8
Shahrixon	269,8	102,4	902,7
Paxtaobod	170,8	101,2	887,5
Xo'jaobod	130,9	100,8	1190,7


**) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda*

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul

Dastlabki ma'lumotlar
oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (2762,0 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari %



Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Asaka tumani (102,6 %), Shahrixon (102,4 %) va Andijon tumanlarida (102,3 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Xonobod shahrida hamda Ulug'nor tumanida (100,5 %) va Bo'ston tumanida (100,1 %) kuzatildi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1691,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 6223,4 ming so'mdan, Ulug'nor tumanida 754,8 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm

	Hajmi, ming so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	1691,3	104,9
<i>Shaharlar:</i>		
Andijon	6223,4	110,2
Xonobod	1923,7	101,2
<i>Tumanlar:</i>		
Oltinko'l	940,3	102,2
Andijon	974,6	102,6
Baliqchi	1222,2	101,4
Bo'ston	796,6	100,5
Buloqboshi	871,9	101,0
Jalaquduq	875,3	102,0
Izboskan	849,0	102,5
Ulug'nor	754,8	100,8
Qo'rg'ontepa	892,6	101,6
Asaka	875,9	103,0
Marhamat	921,8	102,5
Shahrixon	902,7	102,6
Paxtaobod	887,5	101,3
Xo'jaobod	1190,7	101,1

Dastlabki ma'lumotlar

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlarning jami hajmi 227,8 ming so'mga oshdi.

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

74-228-30-83